Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	



Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках инностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований.....	779
У. Ш. Салимов	



RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI

Usmonova Kamola Erkinovna

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0005-9716-0266



Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish, tanqidiy baholash va pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarining ahamiyati ochib berilgan. Modelning tarkibiy qismlari, pedagogik shart-sharoitlari hamda amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: informatsion kompetentlik, analitik kompetentlik, pedagogik model, bo'lajak o'qituvchi, raqamli ta'lim.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical justification for a pedagogical model aimed at developing information-analytical competence in prospective teachers. The importance of working with information, analyzing it, critically evaluating it, and making pedagogical decisions in the modern educational process is substantiated. The structural components of the model, pedagogical conditions, and mechanisms for its implementation are described.

Key words: information competence, analytical competence, pedagogical model, prospective teacher, digital education.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически обоснована педагогическая модель развития информационно-аналитической компетентности у будущих учителей. Раскрыта значимость умений работать с информацией, осуществлять ее анализ, критическую оценку и принимать педагогические решения в современном образовательном процессе. Описаны структурные компоненты модели, педагогические условия и механизмы ее реализации.

Ключевые слова: информационная компетентность, аналитическая компетентность, педагогическая модель, будущий учитель, цифровое образование.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlarida raqamli ta'lim muhitini joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy kasbiy kompetentliklarni, jumladan, informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish muhim vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan. Raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarning axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish va pedagogik qarorlar qabul qilish salohiyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu bois, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Global raqamlashtirish va axborot jamiyati sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanishga tayyorlashdir. YUNESKO tadqiqotlariga ko'ra, XXI asr o'qituvchisining kasbiy salohiyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, axborotni analitik qayta ishlash kompetensiyasini ham qamrab olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni tizimli ravishda rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligiga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.



Xorijiy tadqiqotchilar (A. Ferrari, R. Krumsvik, J. Tondeur va boshqalar) o'z ishlarida informatsion-analitik kompetentlikni raqamli savodxonlik, ma'lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalari majmui sifatida talqin qiladilar. Ularning yondashuvida raqamli ta'lim muhiti o'qituvchining analitik faoliyatini faollashtiruvchi asosiy omil sifatida baholanadi. MDH va Rossiya olimlari (E.F. Zeer, V.A. Slastenin, I.A. Zimnyaya) pedagogik kompetentlikni tizimli kategoriya sifatida o'rganib, unda informatsion va analitik tarkibiy qismlarning o'zaro integratsiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, raqamli muhitda ta'lim oluvchi bo'lajak o'qituvchi axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va tahlil qilish faoliyatini mustaqil amalga oshira olishi zarur.

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (R.H. Jo'rayev, N.A. Muslimov) raqamli ta'lim, pedagog kadrlarni tayyorlash va kompetentlik yondashuvi masalalari keng yoritilgan. Xususan, N.A. Muslimov kompetentlikka asoslangan ta'lim modelida bo'lajak o'qituvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirishni kasbiy tayyorgarlikning muhim sharti sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligini model asosida, bosqichma-bosqich va diagnostik yondashuv asosida rivojlantirish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik model quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

1-jadval: Bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik modelining umumlashtirilgan sxemasi

Bloklar	Maqsad	Asosiy mazmun	Metod va vositalar	Natija
Maqsadli blok	Informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim maqsadlarini belgilash	Umumiy va xususiy maqsadlar, DTS va kasbiy kompetensiyalar bilan uyg'unlik, motivatsiya	Diagnostika, maqsadlarni rejalashtirish, motivatsion vaziyatlar	Talabning o'quv-motivatsion tayyorgarligi
Mazmunli blok	Kompetentlikni rivojlantiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish	Nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyaviy mazmun	Ma'ruza, seminar, trening, mustaqil ta'lim, loyiha ishlari	Axborot bilan ishlash va tahlil qilish malakalari
Jarayonli blok	Mazmunni ta'lim jarayonida samarali amalga oshirish	Pedagogik yondashuvlar, metodlar, texnologiyalar va bosqichlar	Muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha, interfaol metodlar, raqamli platformalar	Analitik va tanqidiy fikrlash faoliyati
Natijaviy blok	Kompetentlik rivojlanish darajasini baholash	Baholash mezonlari, darajalari va usullari	Test, amaliy topshiriq, keys, loyiha, ekspert bahosi	Informatsion-analitik kompetentlikning shakllanganlik darajasi

Maqsadli blok – bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli blokni samarali amalga oshirish quyidagi izchil pedagogik choralarni talab etadi.

Ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish va konkretlashtirish. Avvalo, umumiy maqsad aniq, o'lchanadigan va natijaga yo'naltirilgan xususiy maqsadlarga ajratiladi. Jumladan, bo'lajak o'qituvchilarda axborotni izlash va saralash ko'nikmalarini shakllantirish, axborotni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish, pedagogik vaziyatlar asosida analitik qaror qabul qilish malakalarini hosil qilish hamda kasbiy refleksiya va o'z-o'zini baholash kompetensiyalarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bu jarayonda Bloom taksonomiyasining kognitiv darajalari (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash) metodologik asos sifatida qo'llaniladi. Maqsadlarni davlat ta'lim standartlari va kasbiy kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish.

Maqsadli blokni amalga oshirishda belgilangan maqsadlar:

- oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari;
- pedagog kadrlar tayyorlashga qo'yilgan malaka talablari;
- zamonaviy o'qituvchi kompetensiya modeli bilan uzviy bog'lanishi lozim.

Bu uyg'unlik bo'lajak o'qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligini kasbiy faoliyat ehtiyojlari bilan moslashtiradi. Talabalarning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish. Maqsadli blokni to'g'ri rejalashtirish uchun talabalarning informatsion-analitik kompetentligining dastlabki darajasi aniqlanadi. Buning



uchun diagnostik testlar, so'rovnomalar, amaliy vazifalar, kuzatuv va suhbat metodlari qo'llaniladi. Diagnostika natijalari asosida maqsadli ishlar differensial yondashuv asosida tashkil etiladi.

Motivatsion muhitni shakllantirish. Maqsadli blok samaradorligi talabalarning o'quv-motivatsion faolligiga bevosita bog'liq. Shu sababli:

- kasbiy ahamiyatga ega muammoli vaziyatlar yaratish;
- real pedagogik misollar va keyslardan foydalanish;
- bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrini rag'batlantirish;
- ta'lim jarayonida muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish muhim hisoblanadi.

Bu orqali informatsion-analitik faoliyatga nisbatan barqaror ijobiy munosabat shakllantiriladi.

Kutilayotgan natijalarni aniq belgilash. Maqsadli blokni amalga oshirishda kutilayotgan natijalar oldindan belgilab olinadi. Jumladan, bo'lajak o'qituvchi:

- axborot manbalarini mustaqil tanlay oladi;
- axborotni tahliliy qayta ishlaydi; pedagogik qarorlarni asoslab bera oladi;
- o'z kasbiy faoliyatini reflektiv baholaydi.

Mazkur natijalar keyingi natijaviy-baholash bloki uchun mezon va ko'rsatkichlar vazifasini bajaradi.

Maqsadli blokni bosqichma-bosqich amalga oshirish. Maqsadli blok quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Diagnostik bosqich – boshlang'ich darajani aniqlash;
2. Yo'naltiruvchi bosqich – maqsad va vazifalarni talabalar ongiga singdirish;
3. Shakllantiruvchi bosqich – informatsion-analitik faoliyatni rivojlantirish;
4. Yakuniy bosqich – erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash.

Shunday qilib, maqsadli blokni amalga oshirish aniq maqsadlarni belgilash, ularni normativ hujjatlar bilan uyg'unlashtirish, diagnostika, motivatsiya va bosqichma-bosqich rejalashtirish asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi.

Mazmunli blok bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimini belgilab beradi. Ushbu blokning asosiy vazifasi talabalarga axborot bilan ishlash va uni analitik qayta ishlash bo'yicha nazariy bilimlar berish hamda ularni amaliy faoliyatga yo'naltirishdan iborat. Mazmunli blokning tarkibiy komponentlari. Mazmunli blok quyidagi o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topadi:

1. Nazariy bilimlar mazmuni. Ushbu komponent bo'lajak o'qituvchilarga quyidagi nazariy bilimlarni egalashni nazarda tutadi:

- informatsion jamiyat va raqamli ta'limning asosiy tushunchalari;
- informatsion kompetentlik va analitik kompetentlikning mohiyati;
- axborot manbalarining turlari va ularning ishonchligini baholash mezonlari;
- pedagogik axborotni tahlil qilish usullari;
- ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metodologik asoslari.

Mazkur bilimlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy ko'nikmalar mazmuni. Mazmunli blokda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, axborotni turli manbalardan izlash va saralash, raqamli ma'lumotlarni tizimlashtirish va vizuallashtirish, pedagogik vaziyatlar bo'yicha tahliliy xulosalar chiqarish, ma'lumotlar asosida pedagogik qarorlar qabul qilish hamda ilmiy va ta'limiy matnlar bilan analitik ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu ko'nikmalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida bevosita qo'llaniladi.

2. Kompetensiyaviy mazmun. Mazmunli blok doirasida axborot-savodxonlik kompetensiyasi, tanqidiy va analitik fikrlash kompetensiyasi, muammo yechish kompetensiyasi, raqamli pedagogik kompetensiya hamda refleksiv kompetensiyalar shakllantiriladi. Ushbu kompetensiyalar integrativ xarakterga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi. Mazmunli blokni amalga oshirishda o'quv mazmunini tanlash mezonlari quyidagilar:

- kasbiy yo'naltirilganlik; ilmiylik va tizimlilik;
- amaliyotga yo'naltirilganlik; fanlararo integratsiya;
- talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish.

Mazkur mezonlar mazmunning samaradorligini ta'minlaydi.

Mazmunli blokni amalga oshirish shakllari. Mazmunli blok ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminar va treninglar, mustaqil ta'lim topshiriqlari, loyiha va tadqiqot ishlari, elektron ta'lim kurslari va platformalar shakllari orqali amalga oshiriladi. Bu shakllar bo'lajak o'qituvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Mazmunli blok bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. Mazmunning ilmiy asoslanganligi va kasbiy yo'naltirilganligi pedagogik modelning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Jarayonli blok. Jarayonli blok bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil etish shakllari, metodlari, vositalari va bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu blokning asosiy vazifasi mazmunli blokda belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim jarayonida izchil va samarali amalga oshirishdan iborat. Jarayonli blok quyidagi metodik yondashuvlar asosida tashkil etiladi:

- faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – talabaning bilish faolligini oshirish;
- kompetensiyaviy yondashuv – kasbiy kompetentliklarni shakllantirish;
- tizimli yondashuv – pedagogik jarayonning uzviyligini ta'minlash;
- muammoli yondashuv – analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Mazkur yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Jarayonli blokda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi pedagogik metod va texnologiyalar qo'llaniladi:

- muammoli ta'lim – pedagogik muammolar asosida tahliliy fikrlashni shakllantirish;
- keys-stadi metodi – real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;
- loyiha asosida o'qitish – axborot izlash, tahlil qilish va natija chiqarish jarayonlarini integratsiyalash;
- tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim – ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- interfaol metodlar (debat, aqliy hujum, klaster) – analitik muloqotni faollashtirish.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faol va interfaol metodlar analitik kompetentlikni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ta'lim shakllari va vositalari. Jarayonli blokni amalga oshirishda ta'lim shakllari (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot), mustaqil ta'lim va masofaviy o'qitish, elektron ta'lim resurslari va raqamli platformalar, ilmiy axborot bazalari va kutubxonalar hamda vizual va multimediali ta'lim vositalari qo'llaniladi. Ushbu vositalar axborot bilan ishlashning samaradorligini oshiradi. Jarayonli blokni amalga oshirish bosqichlari. Jarayonli blok quyidagi izchil bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Yo'naltiruvchi bosqich – talabalarni informatsion-analitik faoliyatga tayyorlash, maqsad va vazifalarni anglatish;
2. Faollashtiruvchi bosqich – axborot izlash va tahlil qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;
3. Shakllantiruvchi bosqich – analitik faoliyatni mustaqil bajarish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish;
4. Integratsiyalovchi bosqich – o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni kompleks qo'llash.

Talabalar faoliyatini boshqarish va refleksiya. Jarayonli blok doirasida talabalar faoliyatini boshqarish va refleksiya muhim o'rin tutadi. Bunda o'z-o'zini baholash, refleksiv topshiriqlar, tahliliy hisobotlar, pedagogik kundaliklar kabi vositalardan foydalaniladi. Bu jarayon talabalarning kasbiy o'sishini ta'minlaydi. Jarayonli blok pedagogik modelning amaliy jihatini tashkil etib, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur blokning izchil va ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirilishi pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlaydi.

Natijaviy blok. Natijaviy blok bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan bo'lib, pedagogik model samaradorligini belgilovchi yakuniy komponent hisoblanadi. Ushbu blokning asosiy vazifasi ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholashdan iborat.



Natijaviy blokning maqsadi va vazifalari. Natijaviy blokning asosiy maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikning shakllanganlik darajasini aniqlash va pedagogik model samaradorligini baholashdir. Mazkur maqsad informatsion-analitik kompetentlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish, kompetentlik rivojlanish darajalarini aniqlash, baholash natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish hamda pedagogik modelning samaradorligini aniqlash vazifalari orqali amalga oshiriladi. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari. Bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni baholash quyidagi asosiy mezonlar asosida amalga oshiriladi:

1. Motivatsion mezon – axborot-tahliliy faoliyatga bo'lgan qiziqish, kasbiy ehtiyoj va ichki motivatsiya darajasi.
2. Kognitiv mezon – informatsion va analitik bilimlarning shakllanganligi, tahlil metodlarini bilish darajasi.
3. Faoliyat mezon – axborotni izlash, saralash va tahlil qilish ko'nikmalari, pedagogik vaziyatlarda analitik qaror qabul qilish malakasi.
4. Refleksiv mezon – o'z faoliyatini baholash va tahlil qilish qobiliyati, kasbiy rivojlanishga intilish.

Mazkur mezonlar kompetentlikning kompleks baholanishini ta'minlaydi. Informatsion-analitik kompetentlik rivojlanish darajalari. Natijaviy blok doirasida bo'lajak o'qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligi quyidagi darajalarda baholanadi:

1. Past daraja (reproduktiv) – axborot bilan ishlashda o'qituvchi ko'rsatmasiga tayanadi, tahlil yuzaki amalga oshiriladi.
2. O'rta daraja (qisman ijodiy) – axborotni mustaqil tahlil qiladi, biroq qarorlar yetarlicha asoslanmagan bo'ladi.
3. Yuqori daraja (ijodiy-analitik) – axborotni chuqur tahlil qiladi, pedagogik qarorlarni asoslab bera oladi.

Baholash usullari va vositalari. Natijaviy blokni amalga oshirishda diagnostik testlar, amaliy va tahliliy topshiriqlar, keys va loyiha ishlari, so'rovnomalar va intervyyular, kuzatuv va ekspert bahosi kabi baholash usullari qo'llaniladi. Mazkur usullar baholashning ishonchlilikini ta'minlaydi. Natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish. Baholash natijalari statistik va sifat jihatidan tahlil qilinadi. Olingan ma'lumotlar asosida:

- kompetentlik rivojlanish dinamikasi aniqlanadi;
- tajriba va nazorat guruhlar natijalari solishtiriladi;
- pedagogik model samaradorligi asoslanadi.

Natijaviy blok pedagogik modelning yakuniy va baholovchi komponenti bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish jarayonining samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Ilmiy asoslangan mezonlar va baholash usullarining qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchlilikini ta'minlaydi. Model samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim jarayoniga axborot-tahlilga yo'naltirilgan topshiriqlarni joriy etish, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil tadqiqot faoliyatiga jalb etish hamda o'qituvchi–talaba hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish kabi pedagogik shart-sharoitlar zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik modeli zamonaviy ta'lim talablariga mos bo'lib, kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur model ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda, bo'lajak o'qituvchilarning axborot bilan ishlash madaniyati, analitik fikrlashi va kasbiy mustaqilligi sezilarli darajada rivojlanadi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarda axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va pedagogik faoliyatda samarali qo'llay olishga yo'naltirilgan informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ana shu dolzarb muammoni hal etishga qaratilgan raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, informatsion-analitik kompetentlik faqat texnik ko'nikmalar majmui emas, balki shaxsning kasbiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va pedagogik faoliyatda axborotdan maqsadli foydalanish madaniyatini o'z ichiga olgan murakkab integrativ sifatdir. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli pedagogik ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta'lim tizimida o'quv dasturlarini takomillashtirish, raqamli kompetensiyalarga yo'naltirilgan metodik ta'minotni ishlab chiqish hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedova, D. (2020). Pedagogik kompetentlik va o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.
2. Boboev, Sh. (2018). Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Gulyamov, M., & Islomov, R. (2019). Raqamli pedagogika va o'qituvchi kompetentligi. Pedagogika jurnali, 3(12), 45–53.
4. Jonson, D., & Smith, P. (2017). Developing Information-Analytical Competence in Future Teachers. Journal of Educational Technology, 14(2), 23–34.
5. Kozlova, T. (2020). Analytical Competence of Teacher Trainees in Modern Education. Russian Education Review, 7(4), 78–88.
6. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of Uzbekistan. (2019). Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti: Pedagogika yo'nalishi. Tashkent.
7. Pashayeva, F. (2018). Innovatsion texnologiyalar va o'qituvchi malakasini oshirish. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 5(1), 12–21.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.